

UDK.: 636.92:637.5:637

**INNOPROVET PROBIOTIGI BERILGAN QUYONLARNING TIRIK VAZNI,
ETOLOGIK KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH NATIJALARI****Ibragimov Farxod Moripovich** - mustaqil izlanuvchi,*Ibragimov Furqat Buriyevich* - ilmiy raxbar*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya –Ushbu maqolada go'sht uchun boqilayotgan quyonlarga probiotikli qo'shimcha berilganda quyonlar fiziologik ko'rsatkichlari, o'sish va tirik vaznining ortish ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: so'yim chiqimi, to'qima, pepton, hujayra, tirik vazn, o'sish ko'rsatkichi probiotik.

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan keng islohatlar qishloq xo'jaligiga qaratilgan bo'lib, quyonchilik tarmog'ini rivojlantirish va kooperativ quyon go'shti yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Xususan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 29-sonli «Quyonchilik sohasini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hujjatda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risidagi qarorida mamlakatimizda quyonchilik sohasini sanoat usulida yanada rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va sohaga jalb etiladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirish, bu yo'nalishda import qilinayotgan mahsulotlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish singari qator vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda quyonchilik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati kattadir. Quyon go'shti parhez bop mahsulot bo'lib, ortiqcha vazndan aziyat chekuvchi bemorlar uchun foydali. Tadqiqot yo'nalishiga ko'ra quyon yetishtirishda ozuqa qo'shimchalaridan foydalanish orqali quyonning go'sht berishga tayyor bo'lish davrini qisqartirish hamda tez muddat ichida yetiltirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Normal sharoitda bir dona quyonning yetilib, go'sht berishga tayyor bo'lish davri 90-105 kuni tashkil etadi. Ozuqa qo'shimchalari bilan parvarishlangan quyonlar o'rtacha 45 kunda go'sht berish uchun tayyor bo'ladi. Biz yuqoridagi malumotlarni katta raqamlar bilan umumiy ko'rsatmoqdamiz aslini olganda qanday va qaysi ozuqa qo'shimchalari qo'llanilganda yuqoridagi ko'rsatkichga erishamiz, undan olingan go'shtni qaysi birining biologik hamda iste'mol xossalari yuqoriligini tadqiqotlarimiz davomida o'rganib bormoqdamiz.

Respublikamiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish quyon go'shtining tavsiya etilgan minimal iste'mol normalarini qayta ko'rib chiqish, go'sht yo'nalishidagi quyon zotlarini mahalliy sharoitga moslashtirish va ixtisoslashgan quyonchilik bo'rdoqchilik xo'jaliklarini tashkil etish hisobiga kooperatsiya tizimini joriy etish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish choralari ko'rish kabi vazifalarni tadqiqotlarimiz davomida o'rganib boriladi.

Material va metodlar. Tadqiqotlarimizning eksperimental qismi Qashqadaryo viloyatining "Diyorbek imkoni rabbits" MChJ Shaxrisabz quyonchilik klasteri, Samarqand viloyatining quyonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari "Tarnov - sabzavotlari" va "Kumushkent xumo qushi", quyonchilik xo'jaliklarida hamda Payariq tumanidagi tajriba uchun ajratilgan 40 bosh 2 oylik "Xikol" zotli quyonlarda o'tkazildi. Tajriba uchun olingan quyonlarga PZ - 2020123121-raqamli innovatsion loyiha asosida ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan probiotikni suviga qo'shib berilib, nazorat guruhiga esa tajriba guruhi bilan bir xil oziqlantirish tashkil etildi. Tajriba va nazorat guruhidagi quyonlar kuzatish, o'lchash hamda tirik vazn nazorati orqali doimiy nazorat qilib borildi. Tajribadagi quyonlarni umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan umumiy holat, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi, shilliq pardalar, teri qoplamasi, teri va harakat a'zolari holati aniqlandi. Tajribalar 45 kun davom etib, natijalar tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki tajriba guruhiga berilgan Innoprovet probiotigi o'sishni stimullovchi ta'sirga ega ekanligini va dastlabki 10 kunda yoshi, vazni, oziqlanish va yashash sharoitlari bir xil bo'lgan quyonlarning kunlik tirik vaznining o'zgarishi nazorat guruhidagi quyonlarda 19,5 gr (1,38 %) tajriba guruhida esa 21.4 gr (1.52 %) ni tashkil etdi. Tajribalarimiz davomida quyonlar har 10 kunda vazn nazoratidan o'tkazilib tekshirib borildi va quyidagi natijalar olindi:

Quyونlarning tirik vazni dinamikasi

Yoshi. Sutka	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi	
	Ko'rsatkichlar			
	m, gr	n %	m, gr	n %
60	1415±18.34		1408±12.34	
70	1610±19.64	13.8	1622±11.64	15.2
80	1879±20.47	16.7	1926±7.47	18.7
90	2279±21.63	21.3	2392±8.63	24.2
100	2823±16.32	23.9	2993±6.32	25.1
110	3286±17.27	16.1	3506±5.27	17.1

120	3445±19.52	10.8	3695±6.52	12.7
-----	------------	------	-----------	------

m-guruhdagi quyonlar tirik vaznining o'rtacha ko'rsatkichi

n-10 kunlikda quyonlar tirik vaznining o'sish ko'rsatkichining % dagi miqdori

Tadqiqotlarimiz natijasida o'sish jadalligini sutkalik o'garishlarini hisoblab chiqib, 80-100 sutkalik davrada o'sish jadalligi yuqori ekanligi aniqlandi. Optimal o'sish 90 kunlikda tajriba guruhida o'rtacha kunlik o'sish 60,1 gr (2,4%), nazorat guruhida esa kunlik o'sish 54,4 gr (21,3 %) ekanligi aniqlandi.

Quyoning sutkalik o'sish ko'rsatkichi, %

Guruhlar	Yoshi, kunlik		
	60-80	80-100	100-120
Tajriba guruxi	36,8	55,3	23,5
Nazorat guruhi	32,8	50,7	22,1

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki quyonlar o'sishining eng yaxshi davri 80-100 kunlik paytiga to'g'ri keladi.

Tajribalarimiz davomida oziqlanish va saqlash sharoitlari bir xil bo'lishiga qaramasdan nazorat va tajriba guruhlaridagi quyonlarning etologik xulq atvor xususiyatlari farq qilishi aniqlandi. Natijalar videokuzatuv yordamida sutkalik harakatlari tahlillari yordamida olindi.

Quyoning etologik harakatlari vaqtlari, min

Bir sutkadagi quyonlarning harakatlari	Guruhlar	
	Tajriba	Nazorat
Dam olishi: jami	976	1004
-turishi	152	161
-yotishi	824	843
Oziqlanishi	304	285
Suv ichishi	4	5
Harakati	152	141

Olingan ma'lumotlarning taxlili shuni ko'rsatadiki tajriba davrida nazorat guruhidagi hayvonlar tajriba guruhidagi hayvonlarga nisbatan kamroq dam olishi, oziqlanish vaqtining uzoq davom etishi hamda harakatning davomiyligi uzoq davom etishi bilan farq qildi.

Xulosalar. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki probiotik bilan qo‘shimcha oziqlantirilgan quyonlarda ichki organlarning hujayra va to‘qimalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi natijasida o‘shish jadalligi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi aniqlandi.

Tajribadagi quyonlar tirik vaznining o‘shishi nazorat guruhiga nisbatan o‘shish ko‘rsatkichi 14.6 % yuqori ekanligi aniqlandi.

Fiziologik ko‘rsatkichlari quyonlarning tana harorati, umumiy holati, ishtaha, tashqi ta‘sirlarga javob reaksiyasi, shilliq pardalar, teri qoplamasi, teri va harakat a‘zolari holati fiziologik me‘yorlar chegarasida ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александров, С.Н. Кролики: разведение, выращивание, кормление / С.Н. Александров, Т.И. Косова. - М.: АСТ, Сталкер, 2006. - 160 с.
2. Achilov, O., Ibragimov, F., Boysinova, N., & Abdurakhmanova, N. (2021). Impact of echinococcosis on beef quality in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 260-268.
3. Неъматуллаева, А. Б., Ибрагимов, Ф. М., & Суюнов, Р. У. (2023). ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНАЯ ЭКСПЕРТИЗА ГОВЯДИНЫ ВЫПУСКАЕМОЕ ДЛЯ ПОТРЕБЛЕНИЯ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(2), 55-61.
4. Boysinovna, B. N., Burievich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 845-849.
5. Ibragimov, F., Suyunov, R., & Piyosov, Z. (2023). BALIQ GO ‘SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAXOLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(1 Part 1), 122-126.
6. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
7. Ibragimov, F. B., Piyasov, Z. I., & Ibragimov, F. M. (2023). VETERINARY SANITATION OF FISH MEAT QUALITY ASSESSMENT OF ASPECTS.
8. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
9. Ачиллов, О., Ибрагимов, Ф. Б., Рузимов, М., & Асомиддинов, У. (2022). ЭХИНОКОККОЗ БИЛАН ЗАРЛАНГАН ҚЎЙ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. *AGROBIOTEKHOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 70-73.
10. Do’skulov, V. M., Ibragimov, F. M., & Mamadullaev, G. X. (2022). QORAMOLLARDA TUBERKULOZ KASALLIGIDA OLINADIGAN MAXSULOTLARNING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 18-20.

11. Ibragimov, F. M., & Bo'ronov, A. N. (2022). TURLI OZUQALAR BERIB BOQILGAN QUYON GO'SHTINING SIFAT TAXLILI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 102-105.
12. Муродов, С., Ачилов, О., & Асомиддинов, У. (2022). ҚОРАМОЛ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЖИХАТДАН БАҲОЛАШ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 273-277.
13. Ibragimov, F. V., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 611-614.
14. Ибрагимов, Ф., & Арзимуродова, Р. (2022). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш давр талаби. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 369-374.
15. Burievich, I. F., & Shukhratovna, A. N. (2022). CHEMICAL INDICATORS OF SHEEP MEAT INFESTED WITH ECHINOCOCCOSIS. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(03), 9-11.
16. Ибрагимов, Ф., Насимова, Д., & Рахматов, Ж. (2022). Asal tarkibidagi diastoz fermentini aniqlash. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 132-134.
17. Boysinovna, B. N., Burievich, I. F., & Shukhratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 845-849.
18. Ibragimov, F. V., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 611-614.
19. Ибрагимов, Ф. Б. (1991). Бовисный цистицеркоз и усовершенствование мер борьбы с ним (Doctoral dissertation, Самаркандский сельхоз. ин-т).
20. Ibragimov, F. V., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 611-614.
21. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. Ветеринарна медицина, (97), 379-380.
22. Гафуров, А., & Расулов, У. (2022). Махсулдор қорамолларни қон-паразитар касалликларидан сақлаб қолиш чора-тадбирлари. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 422-444.
23. Расулов, У., & Гафуров, А. (2022). Настойка гармалы (reganum harmala) при пироплазмозе крупного рогатого скота. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 430-433.
24. Расулов, У., Гойибназаров, К., & Буронов, А. (2022). Қорамолларни тейлериоз касаллигидан асрайлик. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 427-429.

25. Расулов, У. (2022). Қашқадарё ва сурхондарё вилоятлари худудларида қорамоллар пироплазмидозларини тарқатувчи каналар фаунаси. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 437-441.
26. Rasulov, U. I., Bobonazarov, E., & Ilyasov, Z. I. (2021). MEASURES TO PROTECT BREEDING AND PRODUCTIVE CATTLE FROM PYROPLASMIDOSIS. World Bulletin of Public Health, 5, 17-18.
27. Rasulov, U. I. (2021). Measures to Protect Breeding and Productive Cattle From Parasitic Blood Diseases. Middle European Scientific Bulletin, 18, 22-23.
28. Rasulov, U. I., & Buronov, A. N. (2021). Protecting Livestock from Theileriosis. Eurasian Medical Research Periodical, 1(1), 28-30.
29. Расулов, У. И., Ибрагимов, Ф. Б., Камолов, Ф., & Собиров, М. (2021). Эпизоотология и распространение пироплазмидозов в Самаркандской области.
30. Давлатов, Р. Б., Расулов, У. И., & Исломов, Г. П. (2018). МЕТОДЫ ТЕРАПИИ И ПРОФИЛАКТИКИ ПИРОПЛАЗМОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. In Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК (pp. 73-76).
31. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. Ветеринарна медицина, (97), 379-380.
32. Расулов, У. И. (1996). Терапия и профилактика трипаносомозов животных (экспериментальное исследование).
33. RASULOV, U., & BARATOV, J. Cattle Pyroplasmosis Therapy and Prevention. JournalNX, 6(11), 264-265.
34. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Vozorlardagi go 'shtning yangiligini aniqlash usullari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 132-136.
35. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Бурунов, А. (2022). Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 129-131.
36. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Ильесов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiolyozining epizootologik holati va go 'shtning xavfsizligi va sifat ko 'rsatkichlari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 124-128.
37. Суюнов, Р., Ильесов, З., & Расулов, Ш. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жиҳатдан баҳолаш. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 119-123.
38. Rasulov, U. I., Bobonazarov, E., & Ilyasov, Z. I. (2021). MEASURES TO PROTECT BREEDING AND PRODUCTIVE CATTLE FROM PYROPLASMIDOSIS. World Bulletin of Public Health, 5, 17-18.

39. Эшбуриев, Б. М., Ботирова, Ш. А., & Илёсов, З. И. (2019). Усовершенствование этиопатогенетических методов лечения диспепсии телят.
40. Эшбуриев, Б. М., Уразов, Ш. А., & Илёсов, З. И. (2019). Этиопатогенез и особенности течения субинволюции матки у коров в условиях фермерских хозяйств Республики Узбекистан.
41. Murodov, S. M., Xolikov, S. F., & Po'latova, N. M. (2022). TOVUQ TUXUMNI EKSPERTIZASI VA ORGANOLEPTIK USULIDA TEKSHIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 498-500.
42. Murodov, C. M., & Xolikov, S. F. (2022). BROYLER TOVUQLAR GO 'SHTINI ORGANOLEPTIK VA LABORATORIYA USULIDA TEKSHIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 494-497.
43. Ибрагимов, Ф., Насимова, Д., & Рахматов, Ж. (2022). Asal tarkibidagi diastoza fermentini aniqlash. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 132-134.
44. Rayimzhonovna, N. D., Abbasovna, M. Z., & Elburusovna, I. M. ORGANOLEPTIC INDICATORS AND THE PRESENCE OF AMMONIA IN BEEF INFECTED WITH FASCIOSIS.
45. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Vozorlardagi go 'shtning yangiligini aniqlash usullari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 132-136.
46. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Буронов, А. (2022). Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 129-131.
47. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Ильесов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiolozining epizootologik holati va go 'shtning xavfsizligi va sifat ko 'rsatkichlari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 124-128.
48. Суюнов, Р., Ильесов, З., & Расулов, Ш. (2022). Сут ва сут махсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жиҳатдан баҳолаш. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 119-123.
49. Boysinovna B. N., Burievich I. F., Shuxratovna A. N. The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 845-849.